


## «Asaka» bank: 2016 yildagi faoliyat yakunlari

2017 yil 23 yanvarda «Asaka» bank Boshqaruvining kengaytirilgan majlisi bo'lib o'tdi. Majlisda «Asaka» bankning 2016 yildagi faoliyati yakunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 14 yanvarda Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida va joriy yil 23 yanvarda O'zbekiston Banklari Uyushmasida bank tizimining 2016 yildagi faoliyati yakunlariga bag'ishlangan yig'ilishda «Asaka» bank tizimi oldiga qo'yilgan vazifalarni ijrosini ta'minlash va bankning 2017 yil yakuniga qadar bajarilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar muhokama qilindi.


Majlisni «Asaka» bank Boshqaruv Raisi Azim Israilovich Axmedxadjayev olib bordi.

«Asaka» bank Boshqaruv qayd etadiki, bankning 2016 yil mobaynidagi faoliyati Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab berilgan 2016 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining eng muhim ustuvor vazifalarini izchil amalga oshirish, Markaziy bank tomonidan belgilab berilgan banklarning barqarorligini mustahkamlash, kapitallashuv darajasini oshirish, yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishish, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh pul mablag'larini bank depozitlariga jalb qilishni ko'paytirish, bank aktivlari va kredit portfeli sifatini yaxshilash, bankning investisiya jarayonlaridagi ishtirokini yanada faollashtirishga qaratildi.

Bank jami aktivlari 2016 yil davomida 3,04 trln.so'mga o'sdi va 2017 yil 1 yanvar holatiga 10,45 trln.so'mni tashkil etdi.




Bank jami kapitalini 108,0 mlrd.so'mga o'sishiga erishildi va 1023,76 mlrd.so'mga yetkazildi.




Bank muntazam ravishda o'z tarkibiy tuzilmalari faoliyati samaradorligini oshirish va mamlakatimiz moliya bozoridagi ishtirokini kengaytirish bo'yicha faol ishlar olib bormoqda. Hozirgi kunda bankning tarmoq tizimi respublikamizning butun hududini qamrab olgan bo'lib, 26 ta filial, 83 ta mini bank, 298 ta chakana bank xizmatlari ko'rsatuvchi shahobchalar orqali aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarga barcha turdagi yuqori sifatli bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

Bank tomonidan mijozlar bazasini kengaytirish borasida ham keng qamrovli ishlar olib borildi. Buning natijasida mijozlar soni 261,4 ming nafarga ko'paydi va ularning soni 1923,3 ming nafarni tashkil qildi.



2017 yil 1 yanvar holatiga respublikamiz iqtisodiyotining turli sohalariga yo'naltirilgan bank kredit qo'yilmalari hajmi 5318,7 mlrd.so'mni tashkil qildi.



Kredit qo'yilmalarining 5034,3 mlrd.so'm miqdoridagi qismi uzoq muddatli kreditlardan iborat, shu jumladan investitsion kreditlar – 4392,9 mlrd.so'm.

«Asaka» bank tashkil etilganidan boshlab asosiy e'tiborni respublikamiz iqtisodiyotining muhim tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan investitsion loyihalarni moliyalashtirishga qaratib kelmoqda. Jumladan, Bank tomonidan avtomobilsozlik, tog'-kon, neft-gaz, kimyo, energetika, yengil, oziq-ovqat, farmasevtika sanoati, transport, qurilish va boshqa tarmoqlarning investitsion loyihalari faol moliyalashtirib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 iyuldagi «Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun 1 380,7 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi.

O'zbekiston Respublikasining 2016 yilga mo'ljallangan Investitsiya Dasturiga muvofiq 273,4 mln. AQSh dollari miqdoridagi investitsiya loyihalari moliyalashtirildi.

Buning natijasida yangi korxonalar barpo qilinib, ko'plab yangi ish o'rinlari yaratildi.

Shuningdek, «Asaka» bank tomonidan respublikamiz poytahti va viloyatlarda aholini uy-joy bilan ta'minlash maqsadida, uy-joy qurilishi uchun pudratchi tashkilotlarga kredit ajratish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. Ushbu maqsadlarga bank tomonidan 454,9 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Bugungi kunga kelib «Asaka» bank kreditlari hisobiga 74 ta ko'p qavatli turar joy binolari qurib bitkazildi va 2099 xonadon barpo etildi. Buning natijasida shuncha oila barcha qulayliklarga ega, shinam uy-joy bilan ta'minlandi.


Bank tomonidan 55,0 mlrd.som miqdorida lizing xizmatlari ko'rsatilib, lizing portfeli hajmi 124,7 mlrd.so'mni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni ijrosini ta'minlash borasida «Asaka» bank tomonidan muhim

yutuqlarga erishildi. Jumladan, Bank balansiga qabul qilingan bankrot korxonalarining 46 tasi yangi investorlarga sotildi. Bankrot korxonalar negizida bankning 14 ta sho'ba korxonasi tashkil qilindi. Tashkil etilgan bank korxonalariga jami 80,6 mlrd.so'm miqdorida investitsiyalar kiritildi. Natijada 4 214 nafar yangi ish o'rinlari yaratildi. Ishlab chiqarish faoliyati tiklangan bankrot korxonalarda jami 850,4 mlrd.so'm miqdorida mahsulotlar ishlab chiqarildi va 77,9 mln.AQSh dollari miqdoridagi mahsulotlar eksport qilindi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasini qo'llab-quvvatlash borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlarda «Asaka» bankning hissasi oshib bormoqda.

Jumladan, Bank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini doimiy ravishda qo'llab-quvvatlash va ularga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari turlarini kengaytirish, sifatini yanada yaxshilash va kredit mablag'lari hajmini ko'paytirish bo'yicha ishlarni faol davom ettirib, 2016 yil davomida barcha moliyalash manbalari hisobidan kichik biznes subyektlariga 1 520,0 mlrd.so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi.




Shu jumladan, ayollar tadbirkorligini tashkil etish va rivojlantirishga 129,2 mlrd.so'm, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun 251,6 mlrd.so'm, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish uchun 15,6 mlrd.so'm, ta'lim muassasalari bitiruvchilariga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishlari uchun 15,0 mlrd.so'm, oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqaruvchi tadbirkorlarga 631,3 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi.

Buning natijasida respublikamizning barcha hududlarida, ayniqsa mehnat resurslari zich joylashgan hududlarda xizmat ko'rsatish muassasalari tashkil etish, mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarish salohiyatini oshirib, respublikamiz aholisini arzon va sifatli mahsulotlar bilan ta'minlashni yaxshilashga, ayollar tadbirkorligi, kasanachilik va hunarmandchilikni rivojlantirishga hamda yangi ish o'rinlari yaratishga imkoniyat yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 6 apreldagi «Tijorat banklari depozitlariga aholi va xo'jalik subyektlari bo'sh pul mablag'larini jalb etishni yanada rag'batlantirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2015 yil 6 maydagi «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari ijrosini ta'minlash hamda aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, naqd pul mablag'larining bankdan tashqari aylanmasini qisqartirish, mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va aholining turmush darajasini oshirish uchun investitsiya resurslarining g'oyat muhim manbai sifatida aholining erkin pul mablag'larini tijorat banklari omonatlariga jalb etishni yanada rag'batlantirish maqsadida «Asaka» bank tomonidan faol ishlar olib borilmoqda. Jumladan, hozirgi kunda 44 turdagi milliy va xorijiy valyutadagi omonatlar joriy qilingan bo'lib, omonatlarni bankning barcha filiallarida rasmiylashtirish mumkin.

Bank tomonidan naqd pul mablag'larining bankdan tashqari aylanmasini qisqartirish va aholining bo'sh pul mablag'larini omonatlarga jalb qilish bo'yicha olib borilgan faol ishlar natijasida aholi omonatlari qoldig'i 2017 yil 1 yanvar holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan 215,86 mlrd.so'mga o'sdi va 814,93 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Omonatchilar soni 249,1 ming nafarga o'sdi va 1 882,8 ming nafardan oshdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 19 apreldagi "Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorini ijrosini ta'minlash maqsadida plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. Bank tomonidan 2017 yil 1 yanvar holatiga 1 730,96 ming donadan ortiq plastik kartochkalar muomalaga chiqarildi.

11 128 dona terminal, 27 ta bankomat va 66 ta infokiosk o'rnatildi. 11 030 ta korxonalar va tashkilotlarda "ish haqi" loyihalari joriy etildi.

Plastik kartochkalar orqali amalga oshirilayotgan naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmi ham kengaymoqda. 2016 yil davomida savdo aylanmalari miqdori 2 474,8 mlrd. so'mni tashkil qildi.



Shu bilan birga, majlisda bankning ayrim filiallari tomonidan kreditlash, buxgalteriya hisobi, pul muomalasi, valuta amaliyotlari, plastik kartochka va boshqa amaliyotlarni bajarishda Markaziy bank hamda Bosh ofis tomonidan yaratilgan imkoniyatlardan talab darajasida foydalanilmayotganligi sababli xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi tanqid ostiga olindi.

Barcha muhokama qilingan masalalar yuzasidan «Asaka» bank Boshqaruvi tomonidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

**Bank Axborot xizmati**